



PIYODAGA USTUVORLIK, HAYDOVCHIGA JARIMA BALLARI. YO'LLARDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA YANGICHA YONDASHUVLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Abdunazarov Sherzod Nabievich

IIV Akademiyasi magistri podpolkovnik

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7996852>

ARTICLE INFO

Received: 26th May 2023

Accepted: 30th May 2023

Online: 31th May 2023

KEY WORDS

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash, piyoda, avtomashinalar, haydovchilar.

ABSTRACT

Maqolada piyodaga ustuvorlik, haydovchiga jarima ballari va yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yangicha yondashuvlar, bu borada huquqshunos olimlarning fikrlari o'rganilib muallif tomonidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Yosh bolalarni maktabga yoki biror joyga kuzatishda «yo'ldan ehtiyot bo'lib o'tinglar», «avtomashinalardan ehtiyot bo'linglar», deb tayinlaymiz. Agar velosipedda sayrga chiqmoqchi bo'lishsa ham, «avtomashinalardan uzoqroq yuringlar», «katta yo'lga chiqmanglar, u yerda avtomashinalar ko'p», deb ogohlantiramiz. Afsuski, yo'llardagi ko'ngilsizliklar tez-tez uchrab turishini odatiy holat sifatida qabul qilishni boshlaganmiz. Yuridik amaliyotda ham avtomobillarga «ortiqcha xavf manbayi» sifatida qarashadi. Insonlarning bevaqt halok bo'lishida yo'l-transport hodisalari yetakchi o'rinlarda turadi. Shu bois yo'llarda o'lim holatlarini kamaytirish har bir davlat hukumatini tashvishlantiradigan jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, og'ir jarohatlarga olib keladigan shikastlanishlar orasida kriminal jarohatlardan so'ng yo'l-transport hodisasi ikkinchi o'rinni egallaydi. Har yili 1,2 millionga yaqin odam YTH qurboni bo'lmoqda, qariyb 50 million kishi turli darajada tan jarohatlari olmoqda. 2005 yildan boshlab BMT tomonidan har yili noyabrning uchinchi yakshanbasi «Jahon yo'l-transport hodisalari qurbonlarini xotirlash kuni» (World Day of Remembrance for Road Traffic Victims) deb e'lon qilingan.

Yo'l-transport hodisalari sababli vafot etayotgan va tan jarohati olayotgan shaxslar, ayniqsa yoshlar va bolalar o'limining yuqoriligi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash zaruratini kun tartibidagi eng muhim masalalardan biriga aylantirmoqda. Bu jarayonda javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash hamda jazo choralarining ta'sirchanligi va samaradorligini oshirish mazkur turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasi muhim o'rin tutadi¹.

Dj.X. Yuldashev ta'kidlaganidek, hozirda kunda haydovchilar tomonidan turli mast qiluvchi, gangituvchi dori vositalarini iste'mol qilgan holda transport vositalarini boshqarish

¹ Юлдашев Д. Х. Ўзбекистон Республикасининг маъмурий қонунчилик нормаларини такомиллаштиришга доир айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 9-11.



holatlari ko'payib bormoqda. Amaliyotda ushbu turdagi qoidabuzarlik holati aniqlangan holda sodir etilgan huquqbuzarlik uchun chora ko'rishning aniq huquqiy mexanizmlarning belgilanmaganligi (huquqiy asosi yo'qligi sababli), fuqarolar tomonidan e'tiroz va shikoyatlar bildirilishiga sabab bo'lmoqda.²

Yurtimizda, hozirgi kunda "**Piyoda — jamoat transporti — velotransport — avtotransport**" ustuvorligi prinsipi asosida faoliyat olib borilmoqda. Bundan shuni anglash mumkinki, yo'llarda harakatlanishda *birinchidan*, piyodalar; *ikkinchidan*, jamoat transporti; *uchinchidan*, velotransportga va oxirida avtotransportga ustunlik beriladi.

Harakatlanishning bunday yondashuv avvalo piyodalar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Horijiy davlatlarda ham piyodalarga hamda velotransportga imtiyozlar yoki ustunliklar belgilangan. Jumladan, yo'llarni kesib o'tish hamda shahar ichida va aholi punktlarida harakatlanishda piyodalarga ustuvorlik berilgan. Piyodalarga ustunlik berilishi – ular bilan bog'liq yo'l transport hodisalari kamaytishiga xizmat qiladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, O'zbekiston Respublikasi IIVning ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilda 1097 ta, 2020 yilda 1093 ta, 2021 yilda 1 797 tasi ma'muriy tartibdagi yo'l-transport hodisalari bo'yicha haydovchilar hodisa joyidan ketib qolgan. Mazkur holatlar natijasida 2019 yilda 1097 ta, 2020 yilda 1093 ta, 2021 yilda 1099 ta ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish hujjatlari to'xtatilgan³. Ushbu holatlarni oldini olish uchun ilmiy va amaliy hamda uslubiy asoslangan yondashuvlar talab etiladi. Misol uchun endilikda avtomaktablarning innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'quv dasturlari IIV Akademiyasi tomonidan tayyorlanadi. Bu orqali avtomaktab xodimlari o'z bilimlarini oshirib olgan bilimlarini fuqarolarga berishadi.

Yo'l harakati qoidalarini asoslarini bolalikdan singdirishni yo'lga qo'yish, ushbu amaliyotni maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablarida joriy etish belgilandi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, qonun-qoidalarga amal qilish tuyg'usini bolalikdan shakllantirish ijobiy natija beradi. Bunda shaxsning ongi shakllanar ekan, unga nima qilish mumkin va nima mumkin emas yoki qanday bajarish kerakligini o'rgatish muhim. Shu bilan birga, ko'plab rivojlangan davlatlarda yo'l harakati xavfsizligi shaxsning hayotiy xavfsizligining ajralmas qismi sifatida tushuniladi va hayotiy xavfsizlikni bolalikdan o'rgatishga alohida e'tibor beriladi. Ko'pincha bolalar YTHga uchrashida ular yo'llarda o'zini qanday tutish kerakligini bilmasliklari ham sabab bo'ladi. Shu bois yo'l harakati qoidalariga amal qilish xavfsizlikning muhim sharti ekanligini tushuntirishni bolalikdan boshlash muhimdir.

Yo'l harakati qoidabuzarligi uchun jarima ballarini hisoblash tizimi. Ba'zan haydovchilar YPX xodimiga «komandir, shu safar kechiring, hali biror marta qoidani buzmaganiman», deb yolvorayotganini eshitamiz yoki yo'l harakati qoidalarini mensimaydigan ayrim haydovchilar «mayli, bayonnoma rasmiylashtiravering, jarimasini to'layman», deb surbetlik qilayotganiga guvoh bo'lamiz. Jarima ballari belgilanishi ashaddiy qoidabuzar

²Юлдашев Д. Х. Ўзбекистон Республикасининг маъмурий қонунчилик нормаларини такомиллаштиришга доир айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 9-11.

³ Юлдашев Д. Х. Ўзбекистон Республикасининг маъмурий қонунчилик нормаларини такомиллаштиришга доир айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 9-11.



haydovchilar, intizomli haydovchilarni farqlash va ularga adolatli jazo qo'llash imkonini beradi. Endilikda har bir yo'l harakati qoidabuzarligi uchun 12 oy davomida alohida jarima ballari hisoblab boriladi. Hisoblangan jarima ballari belgilangan miqdordan oshgan hollarda haydovchi ma'lum muddatga transport vositasini boshqarish huquqidan o'rnatilgan tartibda mahrum qilinadi. Muayyan davr mobaynida yo'l harakati qoidabuzarligi sodir etmagan intizomli haydovchilarga keyinchalik hisoblangan jarima ballarini qisqartirish orqali rag'batlantirish choralari qo'llanadi.

Aholi gavjum hududlarda piyodalar o'tish joylariga piyodalar boshqaradigan svetoforlar o'rnatiladi. Ko'pincha piyodalarning yo'llarni kesib o'tishda qiynalayotgani, haydovchilar esa ularga yo'l berishni istamayotganini kuzatamiz. Svetofor qo'yilmagan piyodalar o'tish yo'lagida tez kelayotgan transport vositasi piyodani kechroq ko'radi. Yoki boshqa transport vositalari to'xtab turish sababini tushunmasdan o'tib ketishga harakat qilishadi. Bu esa piyodalar o'tish yo'llaridagi YTHlar ortishiga olib kelmoqda. Shu sababli, piyodalar boshqaradigan svetoforlarni joriy etish muhim va bu «yo'l – piyoda uchun» tamoyilini joriy etishga xizmat qiladi. Mazkur svetoforlarning standart svetoforlardan farqi shundaki, u ikkita qizil va yashil chiroqdan iborat bo'ladi va faqat tugmachalar orqali ishlaydi. Tugmachalar yo'lining ikki tarafida bo'ladi.

Tuman (shahar)lar kesimida «Xavfsiz yo'l» indeksini yuritish amaliyoti

Tuman (shahar)larda indeks doirasida yo'l infratuzilmasi va yo'l harakati qoidalariga rioya qilinishining holati 29 ta indikator bo'yicha har chorak yakunida baholab boriladi. Indeks ko'rsatkichlari asosida yo'llarda harakat xavfsizligini tashkil etishning holati bo'yicha tuman va shaharlar «yashil», «sariq» va «qizil» toifalarga ajratiladi.

YTHlar hamma hududlarda ham bir xil sodir etilmaydi. Bunda tuman (shahar)lar maxsus indeks ko'rsatkichlari asosida yo'llarda harakat xavfsizligini tashkil etishning holati bo'yicha «yashil», «sariq» va «qizil» toifalarga ajratiladi. Har bir hudud bo'yicha YTHlar soni va turidan kelib chiqib alohida choralar ishlab chiqiladi. Masalan, qaysidir hududda o'lim bilan bog'liq YTH soni ortgan va barqaror bo'lib qolmoqda. Bunda ushbu hududda YTHning sabab va shart-sharoitlari o'rganilib, maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Ma'lumot uchun, Popdan To'raqo'rg'ongacha bo'lgan 4R-112 yo'lining 88-kilometri, «Termiz-Dushanbe» (M-41) xalqaro yo'lining Jarqo'rg'on-Denov qismi (80-kilometri), A-373-yo'lining Yozyovon tumanidan o'tgan 352-kilometri, Samarqand-G'uzor yo'lining (A-378) 85-kilometrda har yili o'nlab odamlar halok bo'lmoqda. Ayniqsa, 2021 yilda Chiroqchida 43 ta, Namangan shahrida 42 ta, Yangiyo'l tumanida 34 ta, Urgutda 28 ta, Andijon tumanida 20 ta YTHda odamlar hayotdan bevaqt ko'z yumgan. Demak, bu hududlar bo'yicha YTHning oldini olish bo'yicha alohida chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak.

Yo'l harakati ishtirokchilarining yo'l harakati qoidalariga rioya qilish madaniyatini yuksaltirish. YTHning oldini olishda harakat ishtirokchilarining yo'l harakati qoidalariga amal qilish madaniyati juda muhim o'rin tutadi. Yo'l harakati qoidalariga amal qilish madaniyati yo'l harakati qoidalarini bilish bilan cheklanmaydi. Bunda ushbu qoidalarni hurmat qilish va ularga ixtiyoriy amal qilish zarur.

Yo'l harakati qoidalariga amal qilish madaniyati haydovchi, yo'lovchi va piyodalarning o'zaro munosabatlarida shakllanishi lozim. Bunda ayniqsa o'zaro hurmat muhimdir. Afsuski, bugun yo'llarda harakat ishtirokchilarining bir-birini hurmat qilmasligi, aksincha qo'pol



munosabatlar, haqoratlar, asabiy signal berishlar, sabrsizlik va shoshqaloqlik, yo'l talashish, bir-birini siqib qo'yish, quvib o'tishga imkon bermaslik, piyodalarning yo'lni kesib o'tishiga toqatsizlik yoki piyodalarning istalgan joydan kesib o'tishga haqliman deb o'ylashi kabilar oddiy holatga aylanib bormoqda. Eng achinarlisi, yo'l harakati qoidalariga radarga tushmaslik, jarima to'lamaslik uchungina amal qiluvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, haydovchi YPX inspektorini ko'rish bilan xavfsizlik kamarini taqib oladi va uning oldidan o'tishi bilan kamarni yechadi yoki radar o'rnatilgan hududlardan tezlikka belgilangan cheklovlarga amal qilib, radarsiz hududlarda yana «gazni bosadi». Jamiyatda yo'l harakati qoidalariga amal qilish madaniyatini yuksaltirish, yo'l harakati qoidalarini qadriyat sifatida shakllantirish bugun biz uchun juda muhimdir. Yo'l harakati xavfsizligini ishonchli ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish maqsadida «Umr tezlikdan muhimdir» va «Xavfsizlik kamari — hayot garovi» shiorlari ostida kompleks targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil etish bo'yicha vazifalar belgilanishi yo'l harakati qoidalariga amal qilish madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'quvchilar orasida yo'l harakati qoidalarini targ'ibotini kuchaytirishga qaratilgan hukumat qarori qabul qilinadi. Unda «Yo'l harakati intizomi bolalikdan boshlanadi» shiori ostida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va maktab o'quvchilariga yo'llarda, chorrahalarda va piyodalar o'tish joylarida harakatlanish asoslarini amaliy-ko'rgazmali tarzda o'rgatish, ularning ongiga bolaligidan boshlab yo'l harakati intizomini singdirish hamda maktablarda «Harakat xavfsizligi sinfxonalari»ni, mahallalarda «Yo'l harakatini o'rgatish maydonchalari»ni tashkil etish nazarda tutiladi.

References:

1. Юлдашев Д.Х. Ўзбекистон Республикасининг маъмурий қонунчилик нормаларини такомиллаштиришга доир айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 9-11.
2. Юлдашев Д. Туркия Республикасининг аёлларга нисбатан тазйиқ ва зўравонликни олдини олиш борасидаги илғор тажрибасига таҳлилий назар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 185-188.
3. Юлдашев Д. Ўзбекистон Республикасида Боланинг фуқаролиги билан боғлиқ масалаларни тартибга солувчи ҳуқуқий механизмларни такомиллаштириш //Юрист ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 38-43. 28. Юлдашев Д. «Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида» ги қонуннинг ўзбекистон фуқаролигини олиш асослари ва шартларини белгиловчи айрим нормалари таҳлили //юрист ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 26-31.
4. Юлдашев Д.Х. Теоретико-правовой анализ понятия паспортной системы //Евразийский Союз Ученых. – 2016. – №. 6-4 (27). – С. 30-32.
5. Юлдашев Д. Ўзбекистон Республикаси фуқаролигини йўқотишга доир ишларни юритиш бўйича ҳуқуқий амалиёт натижалари таҳлили //Общество и инноватсия. – 2021. – Т. 2. – №. 11/5. – С. 1-6.
6. Khayitovich Y.D., Khurozovich N. E., Mamatovich K. K. Legal basis of solution of issues related to the citizenship of the republic of uzbekistan and prospects of their development //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – №. 6.



7. Юлдашев Д. Ўзбекистон Республикаси фуқаролигини тиклашга доир муносабатларни тартибга солувчи миллий қонунчилик нормаларини такомиллаштириш //Юрист ахборотномаси. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 8-13. 33.
8. Норбутаев Э.Х. Административно-процессуальные основы лицензирования оборота гражданского и служебного оружия в республике узбекистан //science and world. – 2013. – С. 29.
9. Нарбутаев Э., Еттибаев Г. Фаолиятни айрим турларини лицензиялаш ва рухсат бериш тартиботларини янада либераллаштиришнинг айрим масалалари //Общество и инновatsii. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 385-392. 35. Нарбутаев Э. Лицензиялашнинг маъмурий-ҳуқуқий табиати ҳамда ички ишлар органларининг рухсат бериш фаолияти //Общество и инновatsii. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 40-47. 84 36. Нарбутаев Э., Еттибаев Г. Некоторые вопросы дальнейшей либерализatsii лицензионно-разрешительных процедур для отдельных видов деятельности //Общество и инновatsii. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 385-392.
10. Норбутаев Э. Ички ишлар органларининг лицензиялаш фаолиятининг ҳуқуқий асосларини ривожлантиришнинг айрим масалалари //Общество и инновatsii. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 69-77.
11. Норбутаев Э.Х. Ички ишлар органларининг лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш фаолияти бўйича ваколатларини таҳлили //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 56-60.
12. Таштемиров А.А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.
13. Таштемиров А.А. Йулларда ҳаракатланишни тартибга солишнинг ҳуқуқий жиҳатлари ва бу борада технологиянинг ахамияти //siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 111-115.
14. Таштемиров А.А. Ахборот технологиялари орқали содир этилган фирибгарлик жиноятларига қарши курашишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 14. – С. 320-327.
15. Таштемиров А.А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31. 43. Таштемиров А.А. Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 42-48.
16. Qushboqov, S., & Yetmishboyev, M. (2022). Jazoni ijro etish muassasalari ishtirokida tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalarning mohiyati va ahamiyati. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(9), 76-80.
17. Таштемиров А.А. Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 42-48.



18. Охунов З., Кушбоқов Ш. Талабалар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 34-39.
19. Qushboqov, S. (2023). Jazoni ijro etish muassasalarining yuridik shaxs sifatidagi tushunchasini yoritishda nazariy tahlil. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(2 Part 2), 49-52.
20. Кушбоқов, Ш. (2023). Юртимизда тадбиркорликни жазони ижро этиш тизимидаги истиқболи. *Models and methods in modern science*, 2(5), 114-117.
21. Кушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасалари фаолиятида тадбиркорликнинг ўрни //Международная конференция академических наук. – 2022. – Т. 1. – №. 27. – С. 16-20.
22. Нарбутаев Э. Административно-правовой характер лицензирования и лицензионная деятельность органов внутренних дел //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 40-47.